

Jamiyat kuzatuv kengashining
2025-yil 30 - iyun dagi
14 -son majlis bayoniga asosan

MA'QULLANGAN

Jamg'arma yagona muassisining
2025-yil 9 - iyul dagi
10 -son qaroriga

1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasining To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasining KORPORATIV BOSHQARUV QOIDALARI

O'zbekiston Respublikasining To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasining Korporativ boshqaruv qoidalar (keyingi o'rinlarda – “Qoidalar”) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining “Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun namunaviy ichki me'yoriy hujjatlari”ga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Maqsadi va xalqaro mezonlari. Ushbu Qoidalar “O'zbekiston Respublikasining To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o'rinlarda – “Jamiyat”) ichki hujjati bo'lib, u boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlarini ilgari surishga qaratilgan.

Qoidalar jamiyatni zarur darajada boshqarish bo'yicha umume'tirof etilgan standart sanalgan jamiyat uchun korporativ boshqaruv bo'yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) bosh tamoyillarida belgilangan zarur darajada boshqarish yondashuvlariga asoslanadi.

Ushbu Qoidalar jamiyatga ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlariga erishishda yordam berish, yuqori darajadagi samaradorlikni, ichki va xalqaro kapital bozorlariga kengroq kirishni ta'minlash, shaffoflikni oshirish, shuningdek, hukumat oldida va ularning yakuniy egalari bo'lgan keng aholi oldida eng yaxshi hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan.

IHTT bosh tamoyillarini asosan xususiy sektor korxonalariga nisbatan qo'llanadigan G20/IHTT korporativ boshqaruv tamoyillarining muayyan qo'llanilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Qoidalar, shuningdek, davlat – davlat ishtirokidagi korxonalarda nisbatan kichik ulushni saqlab qolgan, ammo shu bilan birga mas'uliyatli va xabardor aksiyador sifatida harakat qilishga intiladigan hollarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Davlat ishtirokidagi korxonalar ta'rifi. O'zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida” Qonuniga muvofiq, davlat ishtirokidagi korxona – ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyati yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo'jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan xo'jalik jamiyati, shuningdek, davlat unitar korxonasi.

3. Vakolatlari. Ushbu Qoidalar aksiyador yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi (keyingi o'rinlarda – ishtirokchi), davlat korxonasi ta'sischisi (keyingi o'rinlarda - ta'sischi), davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi va boshqaruv kengashi sifatida davlat qarorlari asosida amalga oshiriladigan tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri to'g'ri boshqaruv amaliyotini amalga oshirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Amalga oshirishda tegishli tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari va tegishli korxonalar faoliyati hisobga olinishi kerak.

4. Amalga oshirish uchun javobgarlik. Ushbu Qoidalarning samarali bajarilishini ta'minlash uchun korxona egasi (aksiyador, ishtirokchi, ta'sischi), uning kuzatuv kengashi va boshqaruv kengashi birgalikda harakat qilishlari lozim. Qoidalarning tavsiyalariga rioya qilish majburiyati to'g'risida qaror davlat ishtirokidagi korxonalarning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilinadi.

5. Majburiyatlar to'g'risida ma'lumotlarni oshkor qilish. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan Qoidalarining tavsiyalariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarni qabul qilish va ularning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining veb-saytida, shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar veb-saytida joylashtirilishi kerak.

Qoidalarni amalga oshirish va ularga rioya qilinshini nazorat qilish bo'yicha tavsiya etilgan harakatlar ketma-ketligi 1-ilovada keltiriladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar 2-ilovaga muvofiq shaklda xabarnomani e'lon qilish orqali Qoidalarining tavsiyalariga rioya qilish majburiyatlarini oshkor qilishi lozim.

Ushbu Qoidalarining tavsiyalarini joriy qilish "rioya qil yoki tushuntir" xalqaro tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Agar Qoidalarining tavsiyalariga rioya qilishning iloji bo'lmasa, davlat ishtirokidagi korxonalar buning sabablarini batafsil oshkor qilishi kerak. Qoidalarining tavsiyalariga rioya qilmaslik davlat organlari tomonidan sanksiyalarni qo'llashga olib kelmasligi kerak.

2-bob. Ishtirokchilarga teng huquqli munosabat

6. Ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) adolatli munosabatda bo'lishni ta'minlash va ularning boshqaruv huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida davlat ishtirokidagi korxonalar:

davlat nomidan faoliyat yurituvchi ishtirokchi (aksiyador) bilan birgalikda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa ishtirokchilarning huquqlarini hurmat qiladi, ularni himoya qilish choralarini ko'radi, shuningdek, ularning ulushlaridan (aksiyalaridan) qat'i nazar, boshqa barcha ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) teng munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi;

ishtirokchilar (aksiyadorlar) ularning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish maqsadida ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishining kun tartibiga qanday ta'sir qilish mumkinligi haqida me'yorni nizomga kiritadi;

ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) korxona ulushlari (har bir turdagi aksiyalar) tomonidan berilgan huquqlar to'g'risida ma'lumotlar olishni ta'minlaydi;

ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) umumiy yig'ilishida korxona ulushlari (aksiyalari) beradigan huquqlarning o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

ishtirokchilarni (minoritar aksiyadorlarni) ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan hollarda himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratadi, shu jumladan, yetkazilgan zararni qoplash choralarini ishlab chiqadi;

insayderlik ma'lumotlari asosida bitimlar tuzishni taqiqlaydi;

kuzatuv kengashini saylash masalasini ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi vakolatlariga kiritadi;

kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomga va ijro etuvchi organ to'g'risidagi nizomga kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ a'zolarining har qanday bitimda yoki, davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi masalasida har qanday qiziqish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini nazarda tutadigan me'yor kiritadi (agar mavjud bo'lsa);

sirtan ovoz berish, shu jumladan, pochta va elektron pochta orqali (elektron imzo bilan tasdiqlangan holda) va ishonchnoma asosida ovoz berish, shuningdek, videokonferensiyalar orqali umumiy yig'ilishlarni o'tkazish uchun imkoniyat va sharoitlar yaratadi;

ustavda qo'shimcha aksiyalarni chiqarishda aksiyadorlar ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib ravishda aksiyalarni sotib olish va aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lish huquqini nazarda tutadi (jamiyat aksiyalarining ellik va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining ellik foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalari aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi shart);

ustavda aksiyalarning (ulushlarning) kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (ishtirokchilar) maxsus masalalar bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega ekanliklarini (majburiy auditorlik tekshiruvidan tashqari), agar ular tegishli

jarayonga rioya qilsa, ular maxsus masalalar bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini ishonchli tarzda belgilashlari kerak, aksiyadorga (ishtirokchiga) o'z huquqlarini amalga oshirish yoki ta'sischi yoki boshqa shaxslar tomonidan shu tariqa davlat ishtirokidagi korxonalarga yoki aksiyadorlarga (ishtirokchilarga) zarar yetkazgan qonun yoki ustavning buzilishini aniqlash uchun zarur ekanligini belgilab qo'yishi zarur.

7. Barcha ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) ma'lumot olishga teng huquqlarini ta'minlash uchun kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ:

Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatida ro'y bergan, 5-bobda ta'riflanganidek, barcha ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) aloqasi bo'lgan muhim dalillar sifatida belgilanadigan o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni to'liq oshkor qilishni ta'minlaydi;

barcha ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) bir vaqtning o'zida va bir xil shartlarda taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni adolatli oshkor qilishda davlat ishtirokidagi korxonalarning yuqori darajadagi shaffofligini ta'minlaydi;

ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik jarayonida barcha ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) to'liq ishtirok etishlari va boshqaruv huquqlaridan foydalanishlari uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi;

ishtirokchilarga (aksiyadorlarga), shu jumladan, minoritar aksiyadorlarga davlat ishtirokidagi korxonalar veb-saytida bunday shartnomalarni oshkor qilish bilan ovoz berish paytida konsolidatsiyalangan pozitsiyalarini shakllantirish uchun aksiyalarga (ulushlarga) egalik qilish to'g'risida bitimlar tuzish imkoniyatini beradi.

8. Ishtirokchilar (aksiyadorlar) bilan o'zaro munosabatlar va maslahatlarni ta'minlash uchun davlat ishtirokidagi korxonalar:

davlat ishtirokidagi korxonalar va uning aksiyadorlari o'rtasida o'zaro aloqa qilish va maslahatlashuvlarga, shu jumladan, veb-sahifalar va elektron pochta orqali aksiyadorlar bilan aloqa o'rnatishga imkon beradigan tizimlarni ishlab chiqadi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning barcha manfaatdor tomonlar (boshqaruv organlari a'zolari, korxonaning mansabdor shaxslari va xodimlari), ta'sischi yoki boshqa shaxslar (aksiyadorlar), bozorning boshqa ishtirokchilari, shu jumladan, yetkazib beruvchilar va mijozlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uchun kommunikatsiya siyosatini belgilaydi;

korxonada sodir bo'layotgan muhim voqealar to'g'risida xabardor qilish uchun ishtirokchilar (aksiyadorlar) va boshqa manfaatdor tomonlar bilan vaqti-vaqti bilan uchrashuvlar tashkillashtiradi;

minoritar aksiyadorlarning roli va huquqlarini ustavlar yoki boshqa vositalar orqali cheklashga yo'l qo'ymaydi, shuningdek, minoritar aksiyadorlar bilan kun tartibidagi masalalar va yirik bitimlar tuzishda maslahatlashuvlar tashkil qiladi;

ishtirokchilarga (aksiyadorlarga) davlat siyosatining maqsadlarini amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlarni (agar mavjud bo'lsa) oshkor qiladi.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan ishtirokchilar (aksiyadorlar) bilan aloqa qilish bo'yicha ishlarni nazorat qilish kuzatuv kengashi tomonidan, u yo'q bo'lganda esa ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

9. Davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruvida minoritar aksiyadorlar (ta'sischi yoki boshqa shaxslar) ishtirok etishiga xizmat qilish uchun:

davlat ishtirokidagi korxonalar ustavida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ vakolatlariga kiradigan masalalar belgilanishi kerak;

kuzatuv kengashi aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishining kun tartibini oldindan ko'rib chiqilganidan keyin tasdiqlashi lozim;

ijro etuvchi organ barcha aksiyadorlarga (muassislarga) aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishining kun tartibiga doir materiallarni, shu jumladan yirik bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha izohlar taqdim etadi.

10. Bitimlarning faqat bozor shartlarida tuzilishini ta'minlash uchun davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi:

davlat ishtirokidagi korxonalar va affillangan shaxslar o'rtasidagi bitimlar bozor sharoitida asosiy bo'limda (main board) uyushgan birja savdolarida tegishli ma'lumotlarni oshkor qilgan holda amalga oshiriladigan tartibni belgilaydi;

affillangan shaxslar ro'yxatini tuzadi va bozor sharoitlariga javob bermaydigan bitimlarni taqiqlagan tarzda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarning adolatli bajarilishini ta'minlaydi;

affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar, shu jumladan joriy tadbirkorlik faoliyati davomida tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi.

11. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari mavjud bo'lgan hollarda davlat ishtirokidagi korxonalar shartnomaviy huquq va majburiyatlarga rioya qilishni, shuningdek, nizolarni o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

3-bob. Manfaaddor tomonlar bilan aloqalar va biznesni mas'uliyatli yuritish

12. Davlat ishtirokidagi korxonalar barcha manfaaddor tomonlar, shu jumladan xodimlar, kreditorlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va boshqalar oldidagi majburiyatlarini bajarishi kerak.

13. Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi kuzatuv kengashi rahbarligida shartnoma majburiyatlarini bajarish va manfaaddor tomonlarning huquqlarini ta'minlash maqsadida quyidagilar nazarda tutilgan siyosatni ishlab chiqadi:

manfaaddor tomonlarni o'z vaqtida aniqlash, ularning huquqlarini aniqlash, shuningdek, barcha manfaaddor tomonlarga adolatli munosabatda bo'lish maqsadi;

kreditorlar, xodimlar va boshqa manfaaddor tomonlarning qonun hujjatlarida va o'zaro kelishuvlarda belgilangan huquqlarini himoya qilish mexanizmlari;

axloq kodeksida yoki biznesni mas'uliyatli yuritish siyosatida nazarda tutilgan manfaaddor tomonlarga nisbatan korxonaning yuqorida ko'rsatilgan siyosatini samarali amalga oshirish uchun kuzatuv kengashlarining vazifalari;

korxona tomonidan shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va manfaaddor tomonlarning huquqlari buzilishini bartaraf etish;

manfaaddor tomonlarning, shu jumladan, xodimlarning davlat ishtirokidagi korxonalarda noqonuniy yoki axloqsiz xatti-harakatlar amaliyoti borasidagi xavotirlari haqida xabar berish imkoniyati.

4-bob. Ichki nazorat tizimi

14. Davlat ishtirokidagi korxonalarning oliy organi jamiyat rahbariyati tomonidan quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan siyosatni belgilab beradi:

jamiyatning moliyaviy faoliyatida oqilona yondashuv va samaradorlik;

uning moliyaviy hisobotlari ishonchliligi;

amaldagi qonun hujjatlari normalari va standartlariga rioya qilish.

Davlat ishtirokidagi korxonalar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha keng qamrovli tayyorgarlikka ega bo'lgan COSO (The Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) modellari asosida tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazoratning integratsiyalashgan modelini amalga oshirishi kerak:

barcha xatarlarni aniqlash va tasniflash (xatarlar xaritasi);

aniqlangan xatarlarni barcha mavjud usullar va dasturiy ta'minot yordamida baholash;

har bir xatar turini boshqarishni aniqlash va har bir xatar uchun chegaralarni belgilash (tavakkalchiliklar ishtahasi);

jamiyat doirasida xatarlarni nazorat qilish va ularga javob berishning samarali tizimini yaratish.

COSO modeli quyidagi tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

ichki muhit (internal environment). Ichki muhit – bu jamiyatdagi atmosfera bo'lib, korxona xodimlari tomonidan xatar qanday qabul qilinishi va unga qanday munosabatda bo'lishlarini aniqlaydi. Ichki muhit tavakkalchiliklarni boshqarish falsafasi va tavakkalchiliklar ishtahasi, halollik va axloqiy qadriyatlarni, shuningdek, ular mavjud bo'lgan muhitni o'z ichiga oladi;

maqsadlarni qo'yish (objective setting). Maqsadlarni rahbariyat ularga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan voqealarni aniqlashni boshlashdan oldin belgilash kerak. Tavakkalchiliklarni boshqarish jarayoni jamiyat rahbariyati maqsadlarni tanlash va shakllantirishning to'g'ri tashkil etilgan jarayoni mavjudligi va ular tashkilotning vazifasi va uning tavakkalchiliklar ishtahasi darajasiga mos kelishiga kafolat beradi;

hodisalarni aniqlash (event identification). Jamiyat maqsadlariga erishishga ta'sir etadigan ichki va tashqi hodisalar ularning tavakkalchiliklar yoki imkoniyatlarga ajratilishini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak. Imkoniyatlar rahbariyat tomonidan strategiyani shakllantirish va maqsadlarni belgilash jarayonida hisobga olinishi kerak;

xatarlarni baholash (risk assessment). Xatarlar ularga nisbatan qanday harakatlar qilish kerakligini aniqlash uchun ularning paydo bo'lishi va ta'sir qilish ehtimolini hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Tavakkalchiliklar xos va qoldiq xatar nuqtayi nazaridan baholanadi;

xatarga javob berish (risk response). Rahbariyat aniqlangan xatarni jamiyatning tavakkalchiliklar ishtahasi va yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatar darajasiga muvofiq holga keltirishga imkon beradigan bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqib, xatarga javob berish usuli – xatarning oldini olish, qabul qilish, kamaytirish yoki qayta taqsimlashni tanlaydi;

nazorat vositalari (control activities). Siyosat va tartib-taomillar shunday tarzda ishlab chiqilgan va yo'lga qo'yilganki, yuzaga keladigan xatarga javob berish samarali va o'z vaqtida bo'lishiga oqilona kafolat beradi;

axborot va kommunikatsiyalar (information and communication). Kerakli ma'lumotlar xodimlar o'zlarining funksional vazifalarini bajarishlari mumkin bo'lgan shaklda va vaqt oraliqida aniqlanadi, qayd etiladi va yetkaziladi. Shuningdek, jamiyat ichida vertikal ravishda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga va gorizontal ravishda samarali axborot almashinuvi mavjud;

kuzatib borish (monitoring). Jamiyatning barcha tavakkalchiliklarni boshqarish jarayoni nazorat qilinadi va zarur hollarda tuzatish kiritiladi. Monitoring joriy boshqaruv faoliyati doirasida yoki davriy baholash orqali amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi tavakkalchiliklarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmani tashkil qilishi mumkin va ularning mustaqilligi ta'minlanishi lozim.

Mas'ul tarkibiy bo'linma mustaqilligini ta'minlash maqsadida kuzatuv kengashi va tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi (agar tashkil etilgan bo'lsa):

- kuzatuv kengashi oldida hisobdorligini ta'minlash;
- bo'linma rahbarini tayinlash (ularning vakolatlarini tugatish);
- bo'linma rahbari va xodimlariga biror kim tomonidan bosim o'tkazilishining oldini olish;
- jamiyat rahbariyatiga xabar bermasdan, bo'linma xodimlari bilan jamiyatdagi xatarlar holati to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri munozaralar olib boradi.

Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish uchun kuzatuv kengashi tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatida quyidagilarni qabul qilishi mumkin:

- tavakkalchiliklar ishtahasini hisoblash;
- jamiyatning yangi mahsulotlarni joriy etish siyosati;
- stress-test o'tkazish mexanizmi;
- jamiyat moliyaviy holatini tiklash rejasi;
- tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy strukturasi.

Ijro etuvchi organ va bo'linma kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati va jamiyat boshqa ichki hujjatlariga muvofiq tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashi lozim.

15. Kuzatuv kengashi quyidagilarni o'z ichiga oladigan axloq kodeksini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlaydi:

kuzatuv kengashi, rahbariyat, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarning axloqiy harakatlariga qo'yiladigan talablar, korrupsiyaga qarshi kurash choralari va imtiyozlarni izlash bilan bog'liq harakatlar, shuningdek, jamiyatda halollik va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha bosh tamoyillarga muvofiq bunday harakatlar uchun javobgarlik;

ijro etuvchi organ tomonidan firibgarlik jarayonlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha hisobotlarni kuzatuv kengashiga taqdim etish jarayoni, shuningdek, firibgarlik faktlarini tasdiqlovchi yozuvlarning hisobdorligi;

firibgarlikning oldini olish va aniqlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha trening o'tkazishga qo'yiladigan talablar;

jamiyat ma'muriy mansabdor shaxslari tomonidan harakatlar va bitimlarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

Jamiyat quyidagilarni o'z ichiga oladigan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq nizolarning oldini olish va hal qilinishini ta'minlash uchun manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosatga ega bo'lishi kerak:

boshqaruv a'zolari, bo'linma boshliqlari va jamiyat xodimlarining jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilish majburiyati;

jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha xodimlarga teng munosabatda bo'lish.

16. Mas'uliyatli ishbilarmonlik xulq-atvorini ta'minlash uchun jamiyat:

o'z faoliyatida tegishli ekologik standartlarni, mehnat muhofazasi va xavfsizlik standartlarini qabul qilishga, ijtimoiy muammolarni hal qilishga, shuningdek, xodimlar va kasaba uyushmalari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar ko'radi;

har yili biznes amaliyoti, tegishli ekologik standartlarga rioya qilish, barqarorlik, ijtimoiy muammolar, mehnat muhofazasi va xavfsizlik standartlari, shuningdek, xodimlar bilan bog'liq muammolar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi;

jamiyat bilan bog'liq har qanday muammo yoki tartibga solish bo'yicha har qanday manfaatni oshkor qiladi (maxfiy va tijorat siri ma'lumotlaridan tashqari);

ularning biznes-maqсадlari va ustavida ko'rsatilgan vazifalar bilan bog'liq bo'lmagan aktivlarga investitsiya kiritmaydi;

siyosiy partiyalar va siyosiy manfaatlarga ega tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda qatnashmaydi.

5-bob. Axborotni oshkor qilish va shaffoflik

17. Jamiyat faoliyati shaffofligi va ochiqligini ta'minlash uchun:

choraklik va yillik hisobotni, shu jumladan, ushbu qoidalarining tavsiyalarini "rioya qil yoki tushuntir" tamoyili bo'yicha bajarish, moddiy faktlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar (maxfiy ma'lumotlardan tashqari), shuningdek, har qanday muhim voqealar yoki muhim korporativ o'zgarishlarni oshkor qiladi;

moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq e'lon qiladi (agar bunday majburiyat bo'lsa);

jamiyatning maqsadi va unga yuklangan vazifalarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishni amalga oshiradi;

jamiyatning davlat ulushiga ega bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarining ustav kapitalida ishtirok etishi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi;

jamiyat nazorat ostidagi sho'ba korxonalari va tashkilotlari bo'lgan bosh korxona sanalgan hollarda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlaydi;

MHXSga muvofiq, foyda va/yoki zararlar, shuningdek, segmentlar bo'yicha tushum to'g'risidagi ma'lumotlarni tuzadi va e'lon qiladi;

MHXSga muvofiq affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni batafsil oshkor qiladi;

jamiyatning kapital strukturasi (mulk ulushi 20 foizdan ortiq), shuningdek, davlat nomidan ish yurituvchi davlat organi – aksiyador (ishtirokchi) to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi;

oltin aksiya, veto huquqi kabi bitimlar yoki maxsus huquqlarni oshkor qiladi;

ijro etuvchi organ va kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash va boshqa to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi;

jamiyat veb-saytida boshqaruv tuzilmasi, ijroiya organi a'zolari va kuzatuv kengashi, ularning yoshi, malakasi, ish tajribasi va vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi;

barcha oshkor qilingan ma'lumotlar jamiyatning veb-saytida ommaga ochiq bo'lishi kerak. Amaldagi qonun hujjatlari bilan oshkor etilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda doimiy ravishda e'lon qiladi.

18. Yillik hisobot bilan bir qatorda jamiyat o'z saytida quyidagilarni e'lon qilishi mumkin:

a) quyidagilarni ko'zda tutadigan boshqaruv tahlili bo'yicha hisobot:

tarmoq strukturasi, tarmoqdagi jamiyat samaradorligi va vazifalariga aloqador milliy va xalqaro ishlanmalar;

jamiyatning SWOT tahlili (kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar), shu jumladan, maxfiy ma'lumotlardan tashqari ma'lumotlar;

segment yoki mahsulotning unumdorligi;

asosiy xatarlar va muammolar;

ichki nazorat tizimlari va ularning to'g'riligi;

qiyosiy tadqiqotlar uchun hisobot yili va oldingi ikki yil uchun operatsion natijalarga nisbatan moliyaviy natijalarni muhokama qilish;

inson resurslaridagi moddiy o'zgarishlar;

atrof-muhitni muhofaza qilish, texnologiyalarni saqlash va rivojlantirish (agar bu jamiyatning biznes sohasiga tegishli bo'lsa);

davlat siyosatida belgilangan vazifalarni bajarish (mavjud bo'lsa), ushbu maqsadlarni amalga oshirish xarajatlari va ularni moliyalashtirish manbalari.

b) quyidagilarni nazarda tutadigan tavakkalchiliklarni boshqarish strukturasi:

xatarlarni aniqlash, boshqarish, nazorat qilish va ular haqida xabar qilish tartibi;

jamiyat duch keladigan xatarlar xarakteri va turi, tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlari va bunday tavakkalchiliklarni boshqarish uchun qo'llanadigan tartib-taomillar;

firibgarlikning oldini olish va aniqlash borasida personal javobgarligi;

firibgarlik bilan bog'liq masalalar bo'yicha nazoratni amalga oshirish uchun hisobotlar taqdim etish jarayoni;

firibgarlikni tasdiqlaydigan yozuvlar va hisobot jarayonlari;

firibgarlikning oldini olish va aniqlash bo'yicha treninglar o'tkazish talabi.

19. Jamiyat davlat organi bilan o'zaro aloqalarga ega bo'lgan holatlarda u quyidagilar haqida ma'lumotlarni oshkor qiladi:

davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro majburiyatlar, moliyaviy yordam, olingan grantlar va subsidiyalar, shuningdek, agar ushbu ma'lumotlar maxfiy bo'lmasa, Hukumat tomonidan jamiyat faoliyati bilan bog'liq kafolatlar;

ma'lumotlarni oshkor qilishning eng yaxshi amaliyotiga muvofiq davlat-xususiy sheriklik loyihalari.

20. Jamiyat faoliyati ustidan tegishli tashqi nazoratni amalga oshirish uchun:

jamiyat xalqaro audit standartlariga (XAS) muvofiq har yili moliyaviy hisobotning mustaqil tashqi auditini o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritishni amalga oshiradi;

ustavga ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi tomonidan auditorlik tashkilotini aniqlash to'g'risidagi qoidani kiritadi;

jamiyatning yillik moliyaviy hisoboti ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

6-bob. Kuzatuv kengashining majburiyatlari

21. Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ a'zolarining vazifalari, javobgarliklari va miqdoriy tarkibi, ularning vakolatlari muddati va ularni tayinlash tartibi jamiyat ustavi bilan belgilanadi.

22. Kuzatuv kengashi samaradorligi korporativ boshqaruv tizimining joriy etilishini baholash asosida aniqlanadi.

23. Jamiyat:

kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlar uchun malakaviy talablar (tijorat, moliyaviy va tarmoq tajribasi) belgilaydi;

kuzatuv kengashiga mustaqil a'zolari jamiyat ustavida nazarda tutilgan umumiy sondan bir nafardan kam bo'lmagan miqdorida kiritadi;

jamiyatda eng malakali boshqaruv bo'lishini ta'minlaydi. Ijro etuvchi organ a'zosini almashtirishda kuzatuv kengashi keng manbalardan olingan malakalarni hisobga olishi va chet ellik nomzodlar uchun ochiq bo'lgan tanlov jarayonini ko'rib chiqishi kerak;

tayinlash va mehnatga haq to'lash qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan tanlov e'lon qilish tartib-taomillari, xolis tanlash mezonlari tavsiflangan holda rahbarlik lavozimlariga tanlov asosida saralash qoidalarini tasdiqlaydi (agar bu jamiyat faoliyatiga muhim deb topilsa);

jamiyat faoliyatiga oid masalalar bo'yicha seminarlar, shuningdek, korporativ boshqaruv bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'quv kurslari orqali kuzatuv kengashi a'zolarining malaka va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha har yili treninglar o'tkazadi.

Kuzatuv kengashining yangi a'zolari jamiyatni, u faoliyat ko'rsatayotgan muhitni, uning strategik maqsadlarini va jamiyatni boshqarishdagi rolini tushunishga yordam berish va uning maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat bo'lgan ishga kirishish treningidan o'tishlari lozim;

tegishli masalalar bo'yicha uning muhokamasini qo'llab-quvvatlash uchun faqat kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat qo'mitalar, jumladan, audit, tayinlash va mehnatga haq to'lash, investitsiya qo'mitalari tuzishi mumkin.

24. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'la olmaydi:

oxirgi uch yil davomida jamiyatda va/yoki jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga (bevosita va/yoki affillangan shaxslar orqali) egalik qiluvchi aksiyador;

jamiyatning yirik mijosi va/yoki yirik yetkazib beruvchisi va/yoki jamiyatning affillangan shaxsi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda, yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ortiq summaga amal qiladigan shartnoma tuzilgan shaxslar hisoblanadi;

oxirgi uch yil davomida jamiyatga va/yoki jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmati ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi bo'lgan shaxs;

jamiyat va/yoki uning affillangan shaxslari bilan har qanday kelishuvga ega bo'lgan shaxs, kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalarining bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bitimlar bundan mustasno;

jamiyat va/yoki jamiyatning affillangan shaxslari boshqaruv va ichki nazorat organlarining a'zosi sanalgan yoki oxirgi uch yil ichida a'zosi bo'lgan shaxs bilan yaqin qarindosh bo'lgan shaxs (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, turmush o'rtoqlar, shuningdek, ota-ona, aka-uka, opa-singillar va turmush o'rtoqlarning farzandlari);

davlat boshqaruv organi yoki davlat korxonasi xodimi bo'lgan shaxs;

jamiyat ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga javob bermaydigan shaxs.

Kuzatuv kengashi a'zolari ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishlarida saylanadi yoki jamiyat ta'sisчисining qarori bilan qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida belgilangan muddatga tayinlanadi.

25. Jamiyat kuzatuv kengashi:

jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi, mustaqil va xolisona qarorlar qabul qilish, barcha ishtirokchilar (aksiyadorlar) tengligini hurmat qilish majburiyatini oladi;

kuzatuv kengashi, ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi, jamiyat ustavi va rivojlanish strategiyasi tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish uchun ijro etuvchi organga o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni mustaqil hal etish bo'yicha talablarni kiritadi;

jamiyat boshqaruvi va nazorat organlari a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat, javobgarlik va nazorat tamoyillari asosida o'zaro hamkorlik qiladi;

tegishli samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilaydi va asosiy xatarlarni aniqlaydi;

kuzatuv kengashi raisi kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ a'zolarining javobgarlik sug'urtasi ta'minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi lozim;

ichki nazoratning umume'tirof etilgan tamoyillariga: xolislik, halollik va jamiyatga nisbatan qo'llaniladigan qonunlar, qoidalar va nizomlarga umumiy muvofiqlikni ta'minlash uchun asosli siyosat, tartib-taomillar, nazorat va muvozanat tizimini o'z ichiga olgan ishonchli ichki nazorat tizimini shakllantiradi;

moliyaviy hisobotlar jamiyat to'g'risidagi ma'lumotlarni adolatli taqdim etishi va taxmin qilingan xatarlarni aks ettirishini kafolatlab, axborotni oshkor qilish va kommunikatsiya jarayonlarini nazorat qiladi;

jamiyat ijro etuvchi organining faoliyatiga taalluqli har qanday hujjatlardan foydalanish huquqiga ega va ularni kuzatuv kengashiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ijro etuvchi organdan oladi. Olingan hujjatlardan kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin.

26. Kuzatuv kengashi a'zolariga nisbatan quyidagi fidutsiar majburiyatlar amal qiladi:

g'amxo'rlik ko'rsatish majburiyati – bu majburiyat kuzatuv kengashi a'zosidan tegishli ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan harakat qilishni talab qiladi;

sadoqat ko'rsatish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati – bu majburiyat kuzatuv kengashi a'zosidan birinchi navbatda jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishni talab qiladi;

tegishli ehtiyotkorlik ko'rsatish majburiyati – bu majburiyat kuzatuv kengashi a'zosidan jamiyatga oid qarorlar qabul qilishda ehtiyot bo'lishni talab qiladi;

mustaqil mulohaza yuritish majburiyati – bu majburiyat kuzatuv kengashi a'zosidan shaxsiy manfaatlari va boshqa manfaatlarini hisobga olmasdan, mustaqil ravishda qaror qabul qilishni talab qiladi.

27. Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq nizolarning yuzaga kelishining oldini olish va hal etish uchun kuzatuv kengashi tomonidan quyidagilarni o'z ichiga oladigan manfaatlar to'qnashuvini hal qilish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi:

jamiyat mansabdor shaxslarining jamiyat manfaatlarida faoliyat yuritish majburiyati;

jamiyat mansabdor shaxslari harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash, shuningdek, ular tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilish;

jamiyat mansabdor shaxslarining kuzatuv kengashini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi to'g'risida xabardor qilish majburiyati;

manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq nizolarni hal qilish bo'yicha batafsil reglament, shu jumladan, ularni hal qilish uchun manfaatdor bo'lmagan uchinchi shaxsni tayinlash yoki kuzatuv kengashining mustaqil a'zosiga manfaatlar to'qnashuvini hal qilish majburiyatini yuklash yo'li bilan.

28. Ichki nazoratning samarali mexanizmlarini joriy qilish uchun jamiyatda, shu jumladan, kontragentlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar bo'yicha ichki auditni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan ichki audit xizmatlari tashkil qilinadi.

Ichki audit xizmati xodimlari kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi va unga hisob beradi.

29. Jamiyat yillik moliya hisoboti qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda nashr qilinadi.

Tashqi auditni o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash har yili, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, tashqi auditorni ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyat tashqi audit xizmatlarini ko'rsatishda ishtirok etadigan auditorlik guruhining boshqa a'zolari yoki hamkorlari ikki yillik muddat tugashidan oldin kuzatuv kengashi a'zolari yoki jamiyatning asosiy menejerlari etib tayinlanishi mumkin emas.

7-bob. Ijro etuvchi organning majburiyatlari

30. Samarali faoliyatni ta'minlash maqsadida jamiyat boshqaruviga hukumat rahbari va a'zolarini yoki siyosiy partiyalar rahbarlarini saylashga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

31. Ijro etuvchi organ a'zolari jamiyat joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyati uchun javobgar hisoblanadi.

32. Rahbar ijro etuvchi organ a'zolarining va o'z javobgarligining sug'urta qilinishini ta'minlash majburiyatini olishi lozim.

33. Jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolatlari belgilangan bo'lishi lozim.

34. Ijro etuvchi organ faoliyati samaradorligi jamiyatning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarni amalga oshirish natijalari bo'yicha aniqlanadi.

35. Ijro etuvchi organ a'zolariga malakaviy talablar kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi va jamiyat faoliyati xususiyatiga (tarmog'iga) muvofiq taqdim etiladi (tijorat, moliya va tarmoq tajribasi).

36. Unga yuklangan vazifalarni bajarish va jamiyatning korporativ maqsadlariga erishish uchun ijro etuvchi organ jamiyat xodimlari va tashqi ekspertlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan tezkor qo'mitalar yoki ishchi guruhlarni tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi kerak.

8-bob. Qoidalarining qabul qilinishi monitoringi

37. Qoidalarining bajarilishi ustidan monitoring amalga oshirish uchun jamiyat ijro etuvchi organi kuzatuv kengashi nazorati ostida 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha qoidalar tavsiyalariga rioya etilishini baholaydi.

38. Baholash natijalari har yili kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim.

**Korporativ boshqaruv qoidalarini tayyorlash va joriy qilish bo'yicha
davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan
TAVSIYA ETILGAN CHORA-TADBIRLAR**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich Kirish	Kuzatuv kengashi yoki ijro etuvchi organ	1. Ta'sischilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishiga korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga rioya qilish masalasini taqdim etish	Boshqaruv organlari tomonidan belgilangan muddatlarda
	Ta'sischilar (aksiyadorlar umumiy yig'ilishi)	2. Ta'sischilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi tomonidan korporativ boshqaruv qoidalar tavsiyalariga rioya etilishi to'g'risidagi qarorni va xabar shaklini tasdiqlash	Ta'sischilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishida
	Ijro etuvchi organ	3. Korporativ boshqaruv qoidalar tavsiyalariga amal qilish to'g'risida xabar e'lon qilish	Ta'sischilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanganidan keyin 10 kun ichida
2-bosqich Hujjatlar tayyorlash	Ijro etuvchi organ	1. Zarur holatlarda uchinchi tomon tashkilotlarini jalb qilgan holda ichki hujjatlarni ishlab chiqish	Joriy qilish davomida
	Ijro etuvchi organ	2. Ichki hujjatlarni qabul qilish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun kuzatuv kengashiga taqdim etish	Joriy qilish davomida
	Kuzatuv kengashi yoki ta'sischilar (aksiyadorlar) umumiy yig'ilishi	3. Ishlab chiqilgan ichki hujjatlarni ma'qullash (tasdiqlash)	Joriy qilish davomida
3-bosqich Monitoring	Kuzatuv kengashi	1. Qoidalarining tavsiyalariga rioya qilish natijalarini ko'rib chiqish	Yil yakunlari bo'yicha kuzatuv kengashi yig'ilishida
	Ijro etuvchi organ	2. Tavsiyalar natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish	Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan muddatlarda
	Ta'sischilar (aksiyadorlar umumiy yig'ilishi)	3. Ta'sischilar (aksiyadorlar) yillik umumiy yig'ilishida natijalarni ko'rib chiqish va joriy qilish natijalarini e'lon qilish	Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda

**Korxona tomonidan korporativ boshqaruv qoidalarini
tavsiyalarini qabul qilganlik haqida
XABAR SHAKLI**

«_____» (AJ, MCHJ, DUK) shuni xabar qiladiki, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi (ishtirokchilar, ta'sischi) «___» _____ 202__ y. №___-sonli qarori bilan korxona «___» _____ 202__ yildan boshlab Davlat aktivlarnii boshqarish agentligi tomonidan «___» _____ 202__ yilda tasdiqlangan davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga rioya qilish majburiyatni qabul qildi.

**Korporativ boshqaruv qoidalariga rioya qilishinshi baholash
NATIJALARI**

№	Tavsiyalar	Rioya qilindi	Rioya qilinmaslik sabablari